

18, 19, 22, 48
ket

18 avgust 2010
III seriya

BOLADEK SHIRIN BAHOR!



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

2010-yil
1-mart
N:9
(66758)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

«E'tirof» ning E'tirofi



Aziz bolajonlar, bugungi kunda yurtimizda 1200 ga yaqin ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatayotganidan xabaringiz bor. Ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini keng ommaga yetkazish, davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini xalqimiz orasida targ'ib qilish, qo'ying-chi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'z navbatida jurnalistlarimizning ham faol, ilg'or, hozirjavob, izlanuvchan, yangilik sari intiluvchan bo'lishlari talab etilyapti.

Kuni kecha poytaxtimizning muhtasham «Dedeman Silk Road» mehmonxonasida «Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalari o'rni va rolini yanada mustahkamlashning dolzarb vazifalari» mavzuida bo'lib o'tgan anjumanda mazkur masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti vakillari, mamlakatimizning yetakchi axborot agentliklari va bosma nashrlari rahbarlari, xalqaro tashkilotlar, mahalliy va xorijiy OAV vakillari ishtirok etgan mazkur anjuman yakunida bosma nashrlar, internet agentliklari o'rtasida e'lon qilingan «E'tirof» respublika ijodiy tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. «Eng yaxshi bolalar nashri», «Eng yaxshi ijtimoiy-siyosiy gazeta», «Bosma nashrning eng yaxshi dizayni uchun», «Eng yaxshi tarmoq nashri», «Yilning eng faol nashri» va «Bosma nashrning eng yaxshi veb-sayti uchun» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar taqdirlandi.

Shuningdek, «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi hududiy bo'limlari qoshida «Kelajak press» matbuot markazlarini tashkil etish loyihasining eng faol ishtirokchilariga ham sovrinlar topshirildi.

Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» ana shu tanlovning «Eng yaxshi bolalar nashri» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Bu nafaqat biz - tahririyat xodimlarining, balki Sizlarning ham yutug'ingizdir, aziz bolajonlar. Chunki tahririyatga yo'llayotgan ijod namunalaringiz, dolzarb mavzudagi maqola va xabarlaringiz bilan gazetaning ma'no-mazmuni, mundarijasini yanada boyitishga o'z hissangizni qo'shib kelyapsiz.

Zero, «Tong yulduzi» - Sizning gazetangiz!

Shunday ekan, «E'tirof»ning e'tirofi BARCHAMIZGA MUBORAK!



Bugun shoira Zulfiya tavallud topgan kun



Oydin HOJIYEVA,
O'zbekiston xalq shoirasi

BAXMAL BINAFAHALAR SOG'INCHI

Biz – shoirlar uchun Zulfiyaxonimning tug'ilgan kuni bahorni boshlab keladi. 1-mart kuni shoirlar jam bo'lib, aziz ustozimizga gul ko'tarib borardik. Lola, binafsha, chuchmoma, chinnigullarga to'lib ketardi shoiramizning xonadoni. Gullarni mehr bilan avaylab, nafis guldonlarga o'zlarini solib, barchasini Hamid Olimjonning yoshlik siymosi aks ettirilgan portret tagiga ohista joylab qo'yardilar. Gul ko'tarib kelgan shogirdlarini onalik mehri bilan erkalab, lutflar aytardilar. Eng aziz, kutilgan mehmoni kelganday har birimizga alohida zar shippaklar kiydirib, xonadon to'riga o'tkazardilar. Zulfiyaxonim bahor, nafosat va onalikning timsoliday ko'nglimizni nurga to'ldirardi. Uzoq Baxmal qirlaridan boychechaklar olib kelishardi. Boychechaklar ildizidan qirning namxush tuprog'ini hidi anqir, ko'ngilni elitardi. Sapsariq, tilladay boychechaklar shu'lalanib, xuddi tiriklik va muhabbat elchisiday unutilmas shoir – (Zulfiyaxonimning umr yo'ldoshi) Hamid Olimjon nafasini olib kelardi Jizzax tomonlardan.

Shoira o'z muxlislarini sevar, hurmat qilardi, ularning maktublarini e'tiborsiz qoldirmasdi. O'zbek, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon xonadonlarida tug'ilgan juda ko'p qizaloqlarga e'tiqod va ixlos ramzi sifatida Zulfiya deb nom berishar va ustozimizga xatlar bitishardi. Jamoat ishlari, ijod zahmatlaridan ortinib, vaqt topib, qizaloq Zulfiyalarga shohi ko'ylakchalar tiktirib, unga chiroyli do'ppichalar qo'shib, pochta orqali yuborardilar ustozimiz. O'sha qizaloqlar ulg'ayib, safga kirib, yuraklarida Zulfiyaning mehrini tuyib, uning umrini davom ettirayotganga o'xshaydilar. Zulfiyaxonim Vodilda dam olganlarida, Alisher ismli bir bolaga mehrlari tushib, «Bir bola oti Alisher» sarlavhali turkum she'rilar ham bitgandilar. Alisher ulg'ayib, oliy ma'lumot olib, katta olim bo'lib yetishdi va Zulfiyaxonimni ikkinchi oyim, deb hozirgacha ardoqlab yuradi.

Zulfiyaxonim yoshlarni g'oyat sevar, e'zozlar, ularning har bir she'r va hikoyalarni diqqat bilan o'qib, o'z fikrlarini aytardilar. Sog'insalar, qo'ng'iroq qilib, hol so'rardilar. Sharifa Salimova, Qutlibeka Rahimboyeva, Farog'at Kamol, Muhtarama Ulug'ova, Maqsuda Ergasheva, Dilbar Hamzaxo'jayeva, Hosiyat Bobomurodova kabi o'nlab bugungi taniqli shoirlar Zulfiyaxonimning parvarishini ko'rib, qadr-u e'tibor topgan ijodkorlardir.

Mana, yana bahor keldi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori nishonini taqib, har yili ko'klam avvalida o'n to'rt nafar yosh, iste'dodli qizlar ijtimoiy, adabiy hayotimizga kirib kelishadi. Esini tanib, xat-savodi chiqqan qizaloqlar o'zini Zulfiyaxonim qiziman, deb atashga ishtiyoqmand bo'lib qolganlar. Demak, Zulfiyaxonim umri, ezgu ishlari hamon elimiz, yurtimizning yodida, xotirasida, bugungi jo'shqin, munavvar kunlarimiz xizmatida deb bilaman.


Bugun bahorning ilk kuni. Ammo hali qish zavqi ko'ngillarni tark etgani yo'q. Qish o'zining oqligi, pokligi va yana rizq-ro'zimizga zamin tayyorlashi bilan qadrli. Shu bois, qish haqida yozilgan ushbu she'r ham ezgulikning bir ko'rinishi, desak yanglishmaymiz. Va Siz ham muallifning fikriga qo'shilasiz, degan umiddamiz.

Quyosh, seni shunchalar
Suyib, yaxshi ko'rsak ham.
Jalolingni yashirib,
Bir-ikki kun olgin dam.

Axir quvonchga to'lar
Qor yoqqanda bor olam.
Axir zavq-u shavqi bor
Ayoqli kunlarning ham.

Oq libosga burkanib
Turganida daraxtlar.
Quloqlarga xush yoqar
Qag'illasa qarq'alar.
Pag'a-pag'a yoqqan qor
Niyatlarga o'xshaydi.
Jalalar bilan yayrab
O'ynashadi, o'ynaydi.

Quyosh, ko'kka chiqmay tur,
Qishga to'yib olaylik.
Oppoq qorni eritma,
Chana uchib to'yaylik.



Nodira RASHIDOVA

QISH ZAVQI

O'ZI QUVNOQ QIZALOQ

Aziz tengdoshlarim,
suratdagi ma'yus
qizaloqni tanidingizmi?



U aslida
juda quvnoq,
xushchaqchaq qiz.

Sevimli ko'rsatuvingiz

«Bolalar tabassumi» orqali barchangizga tabassum ulashadigan Malika Ilhomjonova bo'ladi. Bu surat uning biror filmidagi rolidan olingan bo'lsa kerak, deysizmi? Biroz yangilashingiz. Bu Malikaning boshlang'ich sinflarda tahsil olgan maktabi bilan xayrlashish paytidagi hayotiy surati ekan.

Hozirda u Uchtepa tumanida joylashgan 116-maktabning 5-«A» sinfida faqat a'lo baholarga o'qiyapti.

– Malikaxon, maktabdagi o'qishlar, bolalar ko'rsatuvidagi faoliyating, bularning bari seni charchatib qo'yamayptimi?

– Yo'q. Chunki boshlovchilik qilish sevimli mashg'ulotim. Ko'rsatuvni tasvirga olish jarayoni esa darsdan bo'sh vaqtlarimizga belgilanadi.

– Rollaringga shu darajada berilib ketasanki...

– Hamma shunday deydi.

Avvallari kamera qarshisida ancha hayajonlanardim. Ko'p mashq qilishim, o'z ustimda tinimsiz ishlashim, qolaversa, o'tanamning saboqlari qo'l kelyapti.

– Orzularing, qiziqishlaring haqida gapirib ber.

– Kelajakdagi orzuim mashhur dizayner bo'lish. Lekin dadam mohir shifokor bo'lishimni judayam xohlaydilar. Yana ingliz va rus tillarini mukammal o'rganmoqchiman.

Qiziqishlarim ham juda ko'p: raqs tushishni, rasm chizishni, tikish-bichishni yaxshi ko'raman. Turli salatlar tayyorlash jon-u dilim.

– Mashhurlik yaxshimi?

– Yaxshi, ko'chada yurganimda, ana, «Bolalar tabassumi»dagi qiz, deyishadi. Lekin mashhurlikka munosib bo'lish ham kerak-da.

– Tengdoshlaringga tilaklaring.

– Yuzlaridan tabassum, kundaliklaridan «5» baho arimasin.

Shahnoza ABDUHAMID qizi
suhbatlashdi.

(Sakkizinchi saboq)



Boshi o'tgan sonlarda

SARLAVHA – IJOD

Jurnalistikada u yoki bu maqolaga sarlavha tanlash katta ahamiyatga ega. Ijodkorlar o'rtasida «Yaxshi sarlavha – yarim muvaffaqiyat» degan naql yuradi. Mohirona topilgan, o'ziga xos, o'quvchini jalb qiladigan jozibali sarlavhaga ko'zingiz tushishi bilanoq muallif zehninga tasanno atyasiz.

moning eng manzur so'zidan chiqarishni odat qilib olishdi. Misol uchun, Doston Ubaydullayev «Qo'shiq – mening hayotim», degan uslubda. Bunday rang-baranglik gazeta yoki jurnal sahifalarini mazmunan boyitadi.

O'quvchilar ochiq darslar orqali har bir kasbning o'ziga xos jihatlari haqida bilib oladilar

Bilasizmi, ona zaminimizda tomir otib, gurkirab o'sayotgan daraxtlar orasida «Orzular daraxti» ham bor ekan. Bu daraxtning boshqa daraxtlardan farqi shundaki, uning ildizlari o'quvchi qalbidan suv ichib, mevalari uning orzularidan bo'yig'arkan. «Orzular daraxti» faqat ertaklarda bo'ladi, deysizmi? To'g'ri, avvallari biz ham shunday fikrda edik. Lekin bunday ajoyib daraxtni poytaxtdagi 51-fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan maktabda o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni»da ko'rib, hayratimizga hayrat qo'shildi.



ko'ra, «Ochiq eshiklar kuni»ga tashrif buyurgan Mirobod yengil sanoat kasb-hunar kolleji, Yakkasaroy yengil sanoat kolleji, ToshDShI qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyi vakillari bilan bo'lgan uchrashuv kelgusida o'quvchilarning munosib kasblarni egalashlarida o'z samarasini ko'rsatadi.

Tadbirga ishtirok etgan ota-onalar maktab ruhshunosi, kollej o'qituvchilari bilan fikr almashib, farzandlarini kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Gulyuz BAHODIR qizi



5-«V» sinfiga kirganimizda, o'quvchilar o'z orzularini qizil olmaga yozib, uni mehr bilan daraxt shoxlariga ilib qo'yishayotgandi. Shohruh Abdulloyev qo'lidagi olmaga «Bolalagimdan elchi bo'lishni orzu qilaman», deb yozgan bo'lsa, Leyla Sobirova «Oshpaz bo'lish yagona orzuim», deb yozibdi. Daraxtga osilgan olmalarda uchuvchi, o'qituvchi, jurnalist, iqtisodchi bo'laman, degan yozuvlar ham ko'p edi. Barcha orzular daraxt shoxlariga osilgach, o'quvchilar ustozlari Iroda Tojiddinova ga tanlagan kasblari haqida gapirib berdilar. Iroda opa o'quvchilariga: «Bugun «Orzular daraxti»ga orzuingizni yozib, osib qo'ydingiz. Yillar o'tib, sevgan kasbingizni egallashingizda daraxt sizga albatta yordam beradi», dedilar.

Bunday ochiq darslar nafaqat 5-«V»da, balki «Kasblar festivali» munosabati bilan har bir sinfda o'tkazilayotgandi. Ustozning gaplaridan ilhomlanib, boshqa darslarni kuzatish maqsadida 3-«V»

sinfiga kirdik. Bu sinfda yo'l harakati qoidalarini darsi bo'layotgan ekan. O'quvchilar «Velosipedchilar» va «Piyodalar» guruhlariga bo'linib, ustozlari Rohila Muzaffarovaning savollariga biyron-biyron javob berishardi. Ushbu ochiq darsda hozirjavob o'quvchilar Kamron Zokirov, Aziz Aliyev, Azamatbek Bahodirov, Zarifa Komilova, Feruza Bobojonovalar eng ko'p rag'bat kartochkasini qo'lga kiritdilar va bir ovozdin «Piyodalar» guruhi g'olib deb topildi.

Shu kuni o'quvchilar ochiq darslar orqali har bir kasbning o'ziga xos jihatlari haqida bilib oldilar. Maktab ruhshunosi Shahnoza Ro'ziyevaning fikriga



Jabbor RAZZOQOV

o'tadi. Shundan so'ng ham maqola chop etishga tayyorlanish jarayonida, ya'ni oxirgi marta navbatchi muharrir tomonidan jiddiy sinovdan o'tkaziladi. Tahririyat a'zolari ishtirokida chop etishdan oldin so'nggi bor muhokama qilinadi. Shundan so'nggina u gazeta «yuzini» ko'radi.

Bolalar gazeta va jurnallarida boshlovchi ijodkor yanada qiziqarli, kattalarning xayoliga kelmagan va «qolip»ga tushmagan ajoyib sarlavhalarni topib, o'z maqolalarini e'lon qilishlari juda muhim.

Siz maqola yoki xabar yozishdan oldin besh-o'ntacha sarlavhalarni bir varaqqa yozib chiqing. Ularni tengdoshlaringizga o'qib bering va eng yaxshisini tanlab oling. Maqolani yozib bo'lgandan so'ng sarlavhani mazmunga singib ketganligini tekshiruvdan o'tkazing. Chunki har bir sarlavha ijod gultoji, har bir nashrning yorqin ko'zgusi.

Aziz ijodkor bolajonlar! O'qing, izlaning, mashq qiling. Kelgusida Sizdan yanada mahoratli, dunyoga mashhur qalam sohiblari – jurnalistlar chiqishi mumkin. Bu yo'lda Sizga omad yor bo'lsin!

(Davomi bor)

Hozirgi kunda ayrim matbuot nashrlarida sarlavhalardan chuqur mazmun chiqarib, mushartir diqqat-e'tiborini tortishga harakat qilinmoqda. Misol uchun, oila mablag'ini tejab-tergab ishlatishga bag'ishlangan muammoli maqolalarga «Ro'zG'OR» deb sarlavha qo'yish bilan so'z o'yini qo'llanib, ro'zg'orning har qanday mablag'ni ham o'z domiga tortishi mumkinligi bayon etib berilmoqda. Bunday sarlavhalar ko'pincha muammoli, tanqidiy maqolalarga qo'yiladi.

Bolalarning sevimli yozuvchisi, o'z ijodini jurnalistikadan boshlagan Xudoyberdi To'xtaboyevning sarlavha topishdagi san'ati tahsinga sazovor. Uning «Besh bolali yigitcha», «Sariq devni minib» kabi

KO'ZGUSI

asarlari qalbingizdan joy olishida sarlavha, ya'ni nom topish alohida ahamiyat kasb etgan.

Rus matbuotida sarlavha tanlashga alohida e'tibor beriladi. Avvalo, muallif o'z maqolasiga sarlavhani taqdim etadi. U bo'lim mudiridan tortib, Bosh muharrirgacha bo'lgan bir necha bosqichni bosib

S I Z O' Q I T U V C H I S I Z

1. Sizningcha, o'qituvchining o'rnini qanday bo'lmog'i kerak?

2. O'qituvchi qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?

Dilnoza RAHIMOVA, Toshkent oliy va iqtisodiyot kolleji ruhshunosi:

– O'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish uchun o'qituvchi zarur bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Chunki o'qituvchining o'rnini uning o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga qo'shayotgan hissi bilan belgilanadi. Shunday ekan, o'qituvchining jamiyat oldidagi javobgarligi, mas'uliyati yanada ortib boraveradi.

O'qituvchi ruhshunos bo'lmashligi mumkin emas. Chunki u ta'lim berish bilan birga, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga sola olishi zarur. Bundan tashqari, o'qituvchi bolalarni sevishi, ichki dunyosini tushuna olishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, eng muhimi, har qanday sharoitda ham o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, matonatli bo'lishi lozim.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quvchilar o'qituvchilarga uch xil xislatlari bo'yicha tavsif beradilar: birinchisi – adolatligi, odamgarchiligi, vijdonligi, bolalarni sevish xislatlari; ikkinchisi – sezgirli, talabchanligi; uchinchi – o'z fani bilimdoni, tushuntira olish qobiliyati kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlaridir.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib boraveradi.



Miraziz A'ZAM,
shoir, tarjimon:

– Mazkur yilimizning «Barkamol avlod yili» deb nomlanishi barchamizni behad quvontirdi. Bu iboraning ma'nosini chuqurroq tahlil qilib ko'raylik-chi. Xo'sh, komillik o'zi nima? Unga yetaklovchi omillar nimalardan iborat?

Shu birgina so'z zamirida do'stlik, sadoqat, vatanparvarlik, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassamki, ularning har biri alohida mushohadali bir maqolaga mavzu bo'la oladi. Shuningdek, qo'rqqoqlik, yolg'onchilik, munofiqlik, xiyonat, laganbardorlik kabi illatlar ham borki, ular komillikka putur yetkazadi. Bir kishining qo'rqqoqligi butun boshli bir oilani, hattoki mamlakatni parokandalikka yetaklashi mumkin-ku, axir. Ana shu fazilatlar-ullatlar haqida o'quvchilarga batafsil, misollar yordamida tushunchalar berish lozim, deb o'ylayman.

Bolalar nashrlari tahririyatida ishlaganimizda, katta-katta, keng qamrovli musobaqalar uyushtirardik. Ana shu an'anani davom ettirgan holda «Tong yulduzi» sovrini uchun sport musobaqalari, qo'shiqlar tanlovlari o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tursunboy ADASHBOYEV,
bolalar shoiri,
yozuvchi:

– «Tong yulduzi»ning har bir sonini kuzatib boraman. Keyingi paytlarda gazeta mazmun jihatdan ham, dizayn jihatdan ham ijobiy tomonga o'zgardi. Tahririyat xodimlariga faqat omad tilayman.



Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist:

– Respublikamiz bolalari va o'smirlarining har jabhada qo'lga kiritayotgan yutuqlariga gazeta sahifalarida juda keng o'rin ajratiladi. Bu yaxshi, albatta. Lekin kezi kelganda, ularning hayotida uchrab turadigan ayrim kamchiliklar, o'ylantirayotgan muammolar haqida ham aynan ularning nashri orqali «bong urilsa», foydadan xoli bo'lmasdi. Bu fikrim barcha bolalar nashrlariga tegishli.

Masalan, bugungi kunda hammamizni birdek o'ylantirayotgan kompyuter masalasini olaylik. Hattoki kompyuter



«qirol» Bill Geysning o'zi ham farzandiga uning qarshisida 20 daqiqadan ortiq o'tirishga ruxsat bermas ekan. Ayrim internet klublarining esa aynan maktablarga yaqin joylarda ochilgani tashvishga soladi kishini. Gazeta sahifalarida salomatlik klublari tashkil qilinib, shifokorlarning chiqishlari, maslahatlari, ota-onalarning fikr-mulohazalari berib borilsa, foydadan xoli bo'lmasdi.

IJODKORLAR DAVRASIDA

Tahririyatimizda yaxshi bir an'ana bor: har yili shu paytda yangi-yangi sahifalar, ruknlar tashkil qilish, tuzilgan yillik ish rejalarimiz borasida o'zaro fikrlashib olamiz. Ijodiy muloqotlar ijobiy samara berishi tayin. Bunday davralarda nafaqat tahririyat xodimlari, balki bolalar ijodkorlari ham ishtirok etishsa-chi, nur ustiga a'lo nur, shunday emasmi?! Zero, gazetamizning doimiy o'quvchilari ham, yutuqlarimizdan quvonib, kamchiliklarimizni ro'yi-rost aytib turuvchilar ham shu zahmatkash insonlar-da, axir!

Ko'klamoyning iliq nafasi dillarga allanechuk iliqlik bag'ishlab, ko'ngilda yoqimli tuyg'ular uyg'onayotgan kunlarda tahririyatimizda ana shunday ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Ustozlarimiz bildirgan o'rinli fikrlar, taklif va mulohazalar, hayotiy tajribalaridan so'zlagan maroqli hikoyalari gazetamizning yanada qiziqarliroq, mazmunliroq chiqishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Demak, so'z Sizga, aziz ustozlar!

Erkin MALIKOV,
bolalar yozuvchisi:

– O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yurtboshimiz tariximizni jonlantirib berdilar. Qanday buyuk ajdodlarning avlodi ekanligimizni anglab yetdik.

Meni anchadan buyon bir fikr o'ylantirib keladi: Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk bobokalonlarimiz, tarixiy ajdodlarimizning bolaligi haqida qissalar, romanlar yozilsa-yu, yosh avlodni ularning bolaligi bilan tarbiyalasak. Bu esa siz-u bizning vazifamiz. «Tong yulduzi» gazetasi

orqali bolalar ijodkorlari tanlovini o'tkazishni taklif qilaman.



Abdurahmon AKBAR,
bolalar shoiri:

– Mana ikki yildirki, bu gazetaga obuna bo'lib kelyapman. Uni farzandlarim, nabiralaram bilan birgalikda o'qiyamiz. Gazetaning to'rtta sahifasi rangli tarzda chiqayotgani quvonarli holdir. Unda chop etilayotgan rasmlar sifatiga yanada ko'proq e'tibor berilsa, yaxshi bo'lardi.



Kavsar TURDIYEVA,
bolalar shoirasi:

– Gazetada tashqi mualliflarni jalb qilish, ular bilan ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Nazarimda, gazetada e'lon qilinayotgan ayrim maqola va xabarlar oddiygina xabar tarzida emas, badiiy yondashib yozilsa, o'quvchilar qiziqishi ortardi. Yana, bahs va munozarali maqolalarni ham ko'proq e'lon qilish kerakki, bu o'quvchini fikrlashga, biror voqelikka nisbatan munosabat bildirishga o'rgatadi...



Dilshod RAJAB,
bolalar shoiri:

– Gazetani muntazam kuzatib borishga harakat qilaman. Unda nafaqat bolalar, balki kattalarning ijodiga keng o'rin berilayotganidan mamnunman. Shu o'rinda bir fikrim bor: respublikamizning barcha viloyatlarida, olis-olis tuman va qishloqlarida yaxshi-yaxshi bolalar ijodkorlari juda ko'p. Ular ham jalb qilinsa, «Kamolot», «Kamalak» tashkilotlari boshchiligidagi faoliyat ko'rsatayotgan yosh qalamkashlar to'garagi a'zolari bilan mustahkam aloqa o'rnatilib, ular ijodidan namunalar berib borilsa.



TAHRIRIYATDAN:

Bolalar ijodkorlari bilan qilgan davra suhbatimiz juda maroqli o'tdi. Ular tomonidan bildirilgan turfa fikrlar, o'rinli takliflar gazetamiz mazmunini, mundarijasini yanada boyitishiga shubha yo'q.

Xo'sh, bu borada Sizning fikringiz qanday, aziz o'quvchilar, ota-onalar? Sevimli gazetangizning qanday bo'lishini xohlaysiz? Uning sahifalarida yana nimalar o'qishni istaysiz?

Taklif va istaklaringiz bitilgan maktublaringizni kutib qolamiz.



Bolajonlar, bugun odatda-
gidan barvaqtrog' uyg'ongandirsiz-a?
Derazangizni keng ochib, yuzingizni quyoshning
iliq nurlarida tobladingizmi? Erta tongdanoq bir-
birlariga navbat bermay kuylay boshlagan qushlarning
sho'x, quvnoq qo'shig'ini tinglab, nimalarni his qildingiz?
Kayfiyatingiz ko'tarilib, ich-ichingizdan quvonib, qo'shig'
kuylay yuboray dedingizmi?

Demak, qalbingizga BAHOR mehmon bo'libdi.
Tengdoshlaringizning quyidagi she'rlari, chizgan
rasmlari, topishmoqlari bahoriy kayfiya-
tingizni yanada ko'taradi, degan
umiddamiz.

Lola Turdiboyeva istiqloq
tengdoshi. Toshkent
viloyatining Parkent
tumanidagi 18-maktabni
tamomlab, Qibray qishloq
xo'jalik kasb-hunar
kollejida tahsil olmoqda.
Yosh qalamkash «Parkent
qiziman», «Beg'ubor
tunlar» nomli she'riy
kitoblarida nafis qalb
tuyg'ularini, nozik ko'ngil
kechinmalarini o'ziga xos
tashbehlar orqali ifoda
qilishga harakat qiladi.
Uning sodda va samimiy
she'rlarida bokira
qalbning ehtirosi,
yoshlikning jo'shqin
baland-pastliklari mavjud.
She'riyat olamiga endigina
qadam qo'yayotgan ijodkor
tengdoshingizning she'riy
mashqlari Sizni ham
befarq qoldirmaydi, degan
umiddamiz:



Tanaffusda she'r o'qiymiz


YALPIZ ISI

Onam turib ertalab,
Shirin so'zlar erkalab:
– Bahor keldi, tur, – deydi,
Derazada nur, – deydi.
Onajonim bag'ridan,
Yalpizning isi kelar.
Ko'ksiga bosh qo'yaman,
Mehringing sasi kelar.
Onajonim qalbining,
Qo'rin sezib turaman.
Onam borki, men borman,
Bag'rim butun yuraman.
Munisam bo'lmasa gar,
Dunyo g'arib ko'rinar.
Bir kun bo'lmasa onam,
Quvonch tatimas hech dam.




Bahor eng sevimli
faslim. Uning har yili
yurtimizga zumrad
sepini yoyib kirib
kelishini intizorlik bilan
kutaman. Bahorga atab
she'rlar yozaman,
rasmlar chizaman.

Nazarimda, bahorni
nafaqat biz insonlar,
balki jonivorlar ham



intizorlik bilan kutishadigandek.
Shular haqida o'ylab, tasavvurlarim mahsuli
– ushbu rasmlarimni chizib yuboryapman.
Ular tengdoshlarimga ham ma'qul bo'ladi,
degan umiddaman.

Shohista O'TAMURODOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi
9-umumta'lim maktabi o'quvchisi



YULDUZCHALAR

Kun oxirlab tun bo'ldi,
Osmon yorug' kun bo'ldi,
Yarim pishloq oy bir yon,
Yulduzlar bo'ldi g'ujg'on.

O'rtoqjon, samoga boq,
Kimdir ko'z qisar quvnoq.
Jimir-jimir porlaydi,
Meni ko'kka chorlaydi.

– Miltillagan bu ko'zlar,
Sho'x, quvnoq gulyuzchalar.
Ko'kni kundek yoritgan,
Shu mitti yulduzchalar



Nargiza MADAMINOVA,
Marg'ilondagi iqtidorli
bolalar litseyining 5-sinf o'quvchisi

BUGUN OPPOQ OTIN EGARLAR BAHOR

Bugun osmon bilan so'zlashaman men,
Yulduzlarga boqib, suhbat quraman.
Bugun bahor bilan uchrashaman men,
Tongdan shirin-shirin xayol suraman.
Bugun qorlar emas, gullar yog'adi,
Bugun ko'zlarimdan yog'adi durlar.
Bugun quyoshim ham o'zgacha kular,
Bugun yurtim uzra yog'ilar nurlar.
Bugun qish o'rmini egallar bahor,
Boychechaklar unib chiqadi yana.
Bugun oppoq otin egarlar bahor,
Bugun qaldirg'ochlar qilar tantana.
Qayg'ular narirog' ketadi bugun,
Bugun unutilar tashvish-u alam.
Osmonlarga boshim yetadi bugun,
Bugun quvonchimga qo'shilar olam.

Xonzodabegim DONIYOROVA,
Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 17-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



TOPISHMOQLAR

Bahordan bo'lib e
Qor ostida kulgie
Boshiga kiyib qa
Gul g'unchasi sa
Teramiz etak-oi
Nomi uning ...

Yovvoyi o't bir turi,
O'sar ildizsiz.
Yemishin o'zi topmay,
O'ziga sherik, yuzsiz.

Manzura SHARIPOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 27-umumta'lim makta-
bining 6-«B» sinf o'quvchisi

Boshi gazetaning 6-somida

X
Bu holdan kulib Xo'roz
Maslahat berdi biroz:
- Ovoz chiqsa bemaol,
Tomoqqa kelmas malol.
Quqare-qu, quqare-qu!



JONZOTLAR
QO'SHIG'I



CH
Chumchiq asta chirqillab,
Mushukka yomon boqdi.
Nimadir esga tushib,
U shunday tomoq qoqdi:
- Chirk-chirk, chirk-chirk...



E
Eshak chiqqach sahnaga,
Tomoshabin hang-u mang.
U qo'shig'in boshladi:
- Hang-u hang, hang-u hang...



G
Tomog'in taqillatib,
Laylakvoy so'z boshladi.
O'tirgan hayvonlarning,
Ko'zlarini yoshladi:
- Tirr-taq, tirr-taq...

T
Turna ohista yurib,
Eshakka qurrey, dedi.
Turnaning ashulasi,
Shunday nomlanar edi.



G
Gepard biroz hovliqib,
Sahna tomon yo'l oldi.
Shosha-pisha shu zahot,
Qo'shig'in boshlab qoldi:
- Chayov, chayov, chayov...



O
Ot o'yinga tushgan chog',
Yashnab ketdi-ku o'tloq.
Hatto Baliq qichqirib,
Dedi: - Yashavor, o'rtoq!
Ot tinmasdan o'ynadi,
Qo'shig' aytib to'ymadi:
- Ii-ia, ii-ia, ii-ia, ii-ia...



S
Sahnaga chiqdi Sigir:
- Menga navbat beringlar.
Qo'shig'imni yaxshilab,
Bir eshitib ko'ringlar:
Mo'o', mo'o', mo'o'...



M
Mushuk birdan yumalab,
Koptok misol dumalab,
Sahnaga chiqib keldi,
Mo'ylabin silab dedi:
- Miyov-miyov, miyov-miyov...

Osimxon VOSIXONOV chizgan rasmlar

(Davomi bor)

ALISHER NAVOIY VA O'ZBEK TILI

Ma'lumki, Alisher Navoiy davrida asosiy yozuv-chizuv tili forsiy edi. Shu tufayli bu yozuvdan asosiy xalq ommasi foydalana olmas edi. Shoirning fikricha, ona tilini faqatgina omma emas, balki davlat arboblari, shoirlar ham qo'llashi zarur, deb hisoblardir.

A.Navoiy o'zbek tilining imkoniyat va qudratiga past nazar bilan qarovchilarga shunday baho bergan: «Turkiy (o'zbek) tilda rang-barang, shirin ma'noli she'rilarim behad ko'pdir, forsiy she'rilarim ham bebaho la'l-u gavharlarga o'xshaydi. Go'yo so'z bozorida do'kon olganmen: bir tomonda qandolat do'koni-yu, bir tarafda zargarlik». A.Navoiy o'z aqidalariga sodiq qolib, o'zining eng yirik «Xazoyinul maoniy», «Xamsa», «Lison-ut tayr», «Majolisun nafa'is», «Muhokamatul lug'atayin» kabi asarlarini o'zbek tilida yaratdi.

Uning boy ijodi o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti va rivojiga katta bir turtki bo'ldi va o'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisiga aylandi. Shoir bu haqda haqli ravishda shunday yozgan edi:

*Men ul menki to turk bedodidir,
Bu til birla to nazm bunyodidir.
Falak ko'rmadi men kabi nodire,
Nizomiy kabi nazm aro qodire.*

Biz bilamizki, o'zbek adabiyoti Alisher Navoiygacha ham bo'lgan. Lekin bu adabiyotni va tilni buyuk shoir ko'klarga ko'tardi va gullab-yashnatdi. Shoir «Lison-ut tayr» asarida shunday yozadi:

*Turk nozmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.*

Jo'ra MAMATOV,
filologiya fanlari nomzodi

NAVOIYXONLIK

Poytaxtimizdagi 123-umumta'lim maktabida «Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasi» mavzuida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirni maktab direktori S.Aripova kirish so'zi bilan ochdi. Shundan so'ng A.Karim, O'.Xoldorova, O'.Xo'ja, Sh.Eshboyev kabi shoirlar Navoiy merosining naqadar yuksakligi, uning betakror adabiy, ilmiy merosini o'qish, o'rganish bugungi kun yoshlari uchun dolzarb tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, o'z ijod namunalardan o'qib berishdi.

Tadbirda tashrif buyurgan shoir va yozuvchilar, olim va faxriylar, pedagoglar, ota-onalar Navoiy Hazratlari o'z davrida ko'plab inshootlar, ko'priklar, hammom va ariqlar, masjid, madrasa, xonaqohlar qurilishining homiysi va rahnamosi bo'lganligini, mamlakatning farovon bo'lishi, san'at va adabiyotning rivojlanishiga o'zining bebaho hissasini qo'shganligini alohida ta'kidladilar.

123-maktab o'quvchilari R.Valijonov, Sh.Faxriddinova, R.To'laganova, L.Fatxullayeva, Yu.Kazimov, A.Ismoilov va boshqalar tomonidan tayyorlangan badiiy



chiqishlar, ifodali o'qish, bahr-u bayt aytish, Navoiy va Guli monologi kabi sahna ko'rinimlarini yuqori baholashdi.

Tadbir so'nggida maktab direktori uni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan bir guruh o'quvchilarga ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari M.Hayitova, N.Sa'dullayeva, A.Toshmuhammedova, G.Ibragimova, S.Bektemirova, G'.Aliyev kabi o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

O'limasbek XO'JAYEV

ASRLARDAN KELGAN SATRLAR



Har bir kasb sohibi Vatanga, millatga o'ziga xos tarzda xizmat bajo etadi. Qalam ahli, ma'naviyat va ma'rifat egalari o'zining nodir so'zi, asl asarlari, noyob hikmatiyu, yorqin ibrati bilan el-yurtga xizmat qiladilar.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu sohaning daholari qalamni a'lam kabi (a'lam - bayroq) ko'tarib, o'z millati va xalqini, kerak bo'lsa,

butun bashariyatni ezgulik va yorug' manzillar sari boshlaydilar va chorlaydilar. Hazrat Alisher Navoiy ham ana shunday ma'naviyat sardorlaridan biridir.

Biz nainki yilda bir bora, balki har kuni bu siymodan nur, ziyo, ma'naviy qudrat olamiz. U zotning me'yormezonlaridan kelib chiqib, atrof-muhitga munosabatimizni bildiramiz. «Navoiy bobomiz bundoq deganlar» kabi iboraning o'zi bizga yetarli, uni muhokama qilib ham o'tirmaymiz. Axir:

*Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami...*

degan bayt barcha zamonlar uchun birdek shior emasmi?

U zot davlat ishidan tashqari juda serzahmat va sermahsul ijod bilan ham band bo'lganlar. Ko'p asarlari insonni, xususan, yoshlarni hamisha intilib

yashashga, bilim olishga, kamolot sari talpinishga, barkamol bo'lib voyaga yetishga chaqiradi.

*Tuxum yerga kirib chechak bo'ldi,
Qurt jondan kechib ipak bo'ldi.
Lola tuxumcha g'ayrating yo'qmi,
Ipak qurticha himmating yo'qmi?!*

Ezgulikka, yaxshilikka, to'g'rilikka undov mutafakkir shoir ijodining asosini tashkil etgan. Zero, uning:

*Navosiz ulusning navobaxshi bo'li,
Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'li...*

degan xitobi asrlar osha kishilarni yaxshilikka chorlovchi va boshlovchi yorqin mayoq kabidir.

Umuman, Hazrat Alisher Navoiy ijodi butun insoniyatni yorug' manzillar sari yo'llovchi ma'rifat mash'ali va ma'naviy quvvatdir.

Sherzod RAJABOV

Bahor keldi, qadamlarida go'zallik, qalbida jo'shqinlig-u tabassumida muloyimlik, bokiralik tuyg'ularini jamlab... Latofat, nazokat va malohat faqatgina lo'bar qizlarimizga, munis onalarimizga yarashadigan takrorlanmas fazilatlaridir. Kuni kecha poytaxtimizda badiiy gimnastika bo'yicha qizlarimiz orasida bo'lib o'tgan XI Osiyo chempionati ham chin ma'noda nafosat bayramiga aylanib ketdi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

DUNYODAGI MO'JAZ KOSHONA

Poytaxtimizning muhtasham «Universal» sport saroyida badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda 150 nafar nafosat malikalari o'zaro bellashdilar.

Bir yil muqaddam shahrimizga Osiyo gimnastika uyushmasi prezidenti Rahmon al-Shahriy boshchiligidagi tashrif buyurgan mehmonlar muhtasham, yangi qad rostlagan «Universal» sport saroyiga yuqori baho berishgandi. Sababi, ushbu koshona dunyodagi eng namunalari sport inshootlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, qit'a chempionatining aynan yurtimizda yerda o'tkazilishi rejalashtirilgandi. Vaholanki, Osiyo chempionatiga mezbonlik qilishga Xitoy, Yaponiya, Tailand kabi yirik davlatlar ham shay edilar...

Poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan mazkur sport saroyi chindan ham mo'jizaning o'zginasi. Bu yerda sportning 22 turi bo'yicha xalqaro musobaqalarni yuksak darajada o'tkazish imkonini mavjud. Uzunligi 100, eni 52 metrli inshootda jahon andozalariga mos ravishda 200 metrli yugurish yo'lagi ham bor. Uning o'rtasidagi arenada basketbol, gandbol, voleybol o'ynash mumkin. «Universal» deyilishiga sabab, sport saroyini 5-10 daqiqa ichida turli sport yo'nalishiga moslab o'zgartirish mumkin.



MALIKALAR BELLASHUVI

Qizg'in, keskin bahslarni oynaydi jahon orqali otanalarimiz, aka-ukalarimiz bilan birgalikda miriqib tomosha qildik. Ayniqsa, O'zbekiston, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Tailand, Suriya, Qozog'iston va Qirg'izistondan kelgan iqtidorli gimnastikachilar mahorati barchaning olqishiga sazovor bo'ldi. Sportchilar medallar jamg'armasidan tashqari joriy yilning 14-26-avgust kunlari Singapurda yoshlar o'rtasida bo'lib o'tadigan I Olimpiada o'yinlari yo'llanmasi uchun ham bahs olib borishdi.

Chempionatda qatnashgan qizlarning hammasi bir-biridan tajribali, mahoratli va epchil edi. Ammo musobaqa qoidasiga binoan g'oliblarni aniqlash muhim edi. Bu borada ham yurtimiz Aziza Mamajonovaga teng keladigani topilmadi. U yakka bellashuvining ko'p kurash bahslarida o'z tengqurlari orasida Osiyo qit'asida tengsiz gimnastikachi ekanligini yaqqol namoyon etdi. Azizaning halqada (24,3), arg'amchida (24,3), to'pda (24,35) va bulavadagi (23,575) mashqlarini kuzatgan mutaxassislar unga yuqori baho berishdi.

– Mening bu yutug'im, – deydi Singapur yo'llanmasini qo'lga kiritgan Aziza Mamajonova, – yurtboshimizning biz yoshlarga beminnat g'amxo'rli

ifodasidir. Qolaversa, murabbiylarim bilan musobaqaga qizg'in tayyorlandik. Yaponiya, Xitoy va Malayziya davlatlaridan kelgan tengdoshlarimning chiqishlari havasimni keltirdi. Bunday musobaqalarda birinchi bor ishtirok etishim emas. Bir necha bor xorijiy davlatlarda o'tkazilgan xalqaro turnirlarda ham qatnashganman. Ammo o'z yurtimda, muxlislarim meni qo'llab-quvvatlab turganida, shohsupaning eng yuqori pog'onasini egallash gashti bo'lakcha ekan. Quvonganim, bunday bahslarda qo'lga kiritgan imkoniyatim keyingi g'alabalarimga umid bag'ishlashi shubhasiz.

Darqaiqat, Azizaning chindan-da iqtidorligini Toshkentda o'tgan Osiyo chempionati yana bir bor isbotladi. Malayziyalik gimnastikachi Van Nin Li u haqida hayajonlanib shunday deydi:

– Men yakka bahslarida ikkinchi o'rinni egalladim. O'zbekistonlik gimnastikachi qizlardan Aziza Mamajonova, Sarvinoz Holiqova va Husniyabonu G'ulomovanning go'zal raqs harakatlari hech kimni befarq qoldirmadi. Qizlarimizning katta-katta yutuqlari hali oldinda.

«Universal»da bo'lib o'tgan bellashuvlar xalqaro gimnastika uyushmasi, O'zbekiston gimnastika federatsiyasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorligida tashkil etildi.

SPORTCHILAR QISHLOG'I

Bundan besh yil avval guvalaklik bolalar uchun sport majmuasi qurib bitkazilganidan xabaringiz bor. O'shandan buyon bu qishloqda sportchi o'quvchilar soni kundan-kun oshib bormoqda. O'tgan yili esa muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur sport majmuasi yoniga xalqaro andozalarga mos muhtasham gimnastika zali qurilib ishga tushdi.



Guvalak endi chinakam sportchilar qishlog'iga aylandi. Dastlab 100 nafar qiz sportning nafis turida shug'ullangan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 800 nafarni tashkil etmoqda. Murabbiy Po'lat aka Omonqulov sabog'ini olayotgan qizlarning maqsadi chempionlik sari intilish. Darvoqe, milliy kurash bo'yicha jahon chempioni Mashhura Mavlonova, Osiyo chempioni Sohiba Eshtemirova, Dinora Donayeva va Dilafro'z Abdurahimovanning munosib izdoshlari shu qishloqda kamol topmoqdalar.

BIR MAQSADNI KO'ZLAB

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 313-maktabda «Kasblar ko'rgazma marafoni» o'tkazildi. Unda barcha sinflar «Kasbga yo'naltirish» borasidagi ishlarini namoyish etdilar.

1-4-sinflarda «Kim bo'lsam ekan?» mavzusida tarbiyaviy soatlar, 5-6-sinflarda mehnat ta'limi fanidan noan'anaviy dars soatlari o'tkazildi. 7-9-sinflarda o'tkazilgan «Kasblar tilga kirganda» mavzusidagi katta tadbirda turli kasb egalari, fan nomzodlari, mehnat faxriylari ishtirok etishdi. Maktabning iqtidorli o'g'il-qizlari tomonidan tayyorlangan ko'rgazma yig'ilganlar diqqatini tortdi. Ayniqsa, maktabning 8-9-sinf qizlarining turli kasb egalari siymosini sahna orqali mohirona aks ettirib berishlari yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'oldi. Mazkur bilim dargohida faoliyat ko'rsatayotgan fan to'garaklari qatnashchilarining qo'llari bilan yaratilgan buyumlar va ko'rgazmali qurollarining mohirona ishlanganligi barchani hayratga soldi. Maktabning 8-sinf o'quvchisi

Maftuna Sobirova, Malika Abduborovovalarning yaratgan modellari barchaga manzur bo'ldi. 5-8-sinflararo o'tgan «Men sevgan kasb» mavzusidagi noan'anaviy tarbiyaviy soatlarda sahna ko'rinishlari tarzida namoyish etildi. Sinflarning har biriga turli nominatsiyalar bo'yicha o'rin berildi. Barcha sinf rahbarlari va fan o'qituvchilarining tayyorlagan dasturlari bir-biridan farq qilsa-da, bir maqsadni ko'zlanganligi sezilib turardi.

Tadbirda Yakkasaroy tumani yengil sanoat kasb-hunar kolleji, Yuridik akademik litseyi, tumandagi Kalonov nomli kasb-hunar kollejidan mutasaddi xodimlar kelib, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishdi.

Tadbirda iqtisodchi, shifokor, mashinasoz, o'qituvchi, arxitektor-qurovchi,



bank xodimlari, temiryo'l mutaxassislari ishtirok etib, o'z kasblari to'g'risida so'zlab berdilar. Maktab rahbari A.N.Boltaxo'jayev, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnoza Mansurxonova, o'quv ishleri bo'yicha direktor

o'rinbosari Umida Ikromova, Shahnoza Sulaymonovalarning sa'y-harakatlari bilan tadbir maroqli va mazmunli tarzda o'tdi.

Muzaffar AHMEDOV

Boshi o'rgan sonlarida

Yusuf FAYZULLO

Murzik kap-katta odamlarning unga ko'rsatgan ishonchidan quvonganicha ko'chatni ko'tarib uyiga kirib ketdi. Supacha chetidagi xoliroq joyni tozalab, chuqur kovladi. Ko'chaga chiqib amakildan ko'chatni qanday ekish haqida qayta-qayta so'rab oldi. Chuqurga bir chelak suv quyib, ko'chat tagiga tuproq tortdi. So'ng, ishini nihoyasiga yetkazganidan ko'ngli to'lib, ko'cha tomon yo'naldi. Hozir ko'chatni ekib qo'yganini aytisa, amakilari xursand bo'lishadi. Endi darvoza yoniga yaqinlashganida, G'affor tog'aning shang'illagan ovozi qulog'iga chalindi: nimaligi noma'lum bir quruq cho'pni Murzikka qistirib yuborganini aytib, tog'axo-xolab kulardi. Murzik turgan joyida qotib qoldi. Bir xayoli ko'chatni olib, G'affor tog'aning hovlisiga otgisi keldi. Keyin esa fikridan qaytdi. Bir martasiga nima qilib bo'lsa ham shu ko'chatni ko'kartirishni diliga tugib qo'ydi. Jahlni bosish uchun ko'chat atrofidagi yerni ag'darib, chopib tekislay boshladi.



(Bo'lgan voqea)

Xaskash bilan kesaklarni maydalab, uch-to'rt quloch joyni qumday elab tashladi. Hayron bo'lib turgan onasiga jilmayib dedi:

– Oyi, shu yerga ukrop, kashnich sepib qo'ysak, chiqarmikin?

Saodat opaga, osmonda baliq uchib yuribdi, deyishsa, ajablanmasligi mumkin. Lekin o'g'lining dabdurustdan aytgan gapini...

Ertasigayoq reza-vorlarning urug'ini olib keldi. O'g'lining yonida turib, sepishib yubordi.

Shu kundan boshlab Murzikning eng asosiy mashg'uloti supa atrofida aylanish bo'lib qoldi. G'affor tog'a sovg'a qilgan olma ko'chatiga kuniga uch marotaba suv quyay, barg chiqaryaptimikan, deb tikilganikilgan edi. Ko'chat esa barg yozay demasdi. Ammo ko'katlar potirlab chiqib, hovlini muattar bo'yga to'ldirib yuborishdi.

Zebo xola Murzikni alqab-alqab, oshko'klardan terib ketadigan bo'ldi. Uch-to'rt bor terib olgach, ikkita jo'ja

ko'tarib keldi.

– Bolam, baraka top. Sen tufayli ovqatimga maza kirdi. Bular senga sovg'a, zoti yaxshi. Tuxumga kirsas, kuniga tug'adigan bo'ladi.

Zebo xola tufaylimi, boshqa qo'shnilar ham Murzikning ko'katiga o'rganib olishdi. Ayniqsa, bir paytlar to'polonchi bu bolakayni qitmir mushukka qiyoslab Murzik deb laqab qo'yan G'affor tog'aning kelini ko'katxo'r chiqib qoldi. Uch mahal ovqatga bexato ko'k soladigan bu kelin bir gal hazil aralash bir to'da ayollar davrasida «Mirzajonni o'zim kuyov qilaman», dedi. Xuddi shu kundan boshlab Murzik degan nom unutila boshlandi. Jo'jalar tovuqqa aylanib tuxumga kirdi. Ko'chat bargidan darak yo'q. Mirzajon esa hovlida bir qarich bo'sh joy qoldirdi. «Rahmat, ukajon!», «O'zim kuyov qilaman», «Dehqon bolam», deya erkalab, ko'kat olib ketadigan mahalladoshlari ham besh-olti so'm pul berib ketadigan bo'lishdi. Shu tariqa Mirzajonning jam'armasi ham ancha boyib qoldi. O'zi esa hamon kuniga uch mahal olmasiga suv quyay, biror bo'rtgan joyi bormikan, deya sinchiklab kuzatardi. Kaltakda esa o'zgarish yo'q edi.

(Davomi bor)

LINVORD – MUAMMONOMA

Avval ta'riflari asosida javoblarni yozib, linvordni hal eting, so'ng javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar asosida muammonomani hal etsangiz, Alisher Navoiy qalamiga mansub ikki misra hikmatni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

MUAMMONOMA		3	13	2	11	5	*	12	1	6	10	7	*	3	13	2	.		
MUAMMONOMA		3	13	2	11	5	*	12	1	6	4	7	10	*	8	3	13	2	.
Yo'l	Qattiq jins	Yil fasli		Ota so'zining kitobiy atamasi		Gaz modda	Chinni ashyosi, oq loy	Qizil tusli qimmatbaho tosh	Shifobaxsh janub mevasi	Sutka qismi	To'yda chalinadigan soz								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13							
Nihol, yosh daraxt	Taomga ishlatiladigan ko'kat	Yoritish asbobi	Bo'ychan	Aql, idrok	Mushtoq, muntazir	Muayyan hududga xos ob-havo	Qat'iy va'da, qasam	Kimyoviy elementning yana bir atamasi	Musiqqa asbobi										



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar: Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV, Navbatchilar: Gulyuz ORIFJONOVA, Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: G'ayrat SHUMAROV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbar RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Dilmurod RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@bk.ru Tel: 244-27-25, 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 7875 Buyurtma N: 9035